

2023- yilning yanvar-mart oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,
mlrd. so'm

6 137,9

YAHM o'sish
sur'ati

97,1%

YAHM deflyator
indeksi

110,4%

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-martida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 6137,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 2,9 % ga kamaydi.

YAHM deflyator indeksi 2022- yilning yanvar-martidagi narxlariga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,1 % ga yetdi.



**2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2022- yil</i>	<i>2023- yil</i>	
I. YAHM, jami	5 728,9	6 137,9	97,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 088,9	5 448,7	97,8
mahsulotlarga sof soliqlar	640,0	689,2	91,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 088,9	5 448,7	97,8
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	625,5	777,6	102,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 087,6	1 881,2	88,7
sanoat	1 668,0	1 453,5	86,7
qurilish	419,6	427,7	96,4
xizmatlar	2 375,8	2 789,9	104,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	322,9	388,1	105,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	401,5	460,2	108,0
boshqa xizmat tarmoqlari	1 651,4	1 941,6	103,5



YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 101,5 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 % ga kamdir.

2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	88,8	88,8
mahsulotlarga sof soliqlar	11,2	11,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	12,3	14,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	41,0	34,6
sanoat	32,8	26,7
qurilish	8,2	7,9
xizmatlar	46,7	51,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,3	7,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,9	8,4
boshqa xizmat tarmoqlari	32,5	35,6

2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 12,3%

Sanoat 32,8%

Qurilish 8,2%

Xizmatlar 46,7%

2023- yil



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 14,3%

Sanoat 26,7%

Qurilish 7,9%

Xizmatlar 51,1%

● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

2023- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 88,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 11,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 14,3 % ni, sanoat tarmog'i 26,7 % ni, qurilish 7,9 % ni va xizmatlar sohasi 51,1 % ni tashkil qildi.



2023- yilning yanvar-mart oylarida YAHM
o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga
nisbatan % da)

YAHM



-2,9

**Qishloq, o'rmon
va baliqchilik
xo'jaligi**



0,3

Sanoat



-3,9

Qurilish



-0,3

Xizmatlar



1,9

**Mahsulotlarga
sof soliqlar**






-0,9

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,3 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 0,1 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,9 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – 2,6 f.p.) ijobiy, sanoat tarmog'i – 3,9 f.p. (2022-yilning yanvar-martida – ijobiy 0,3 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,3 f.p. (2022-yilning yanvar-martida salbiy – 0,1 f.p.) salbiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM -0,9 f.p. (2022-yilning yanvar-martida ijobiy 0,4 f.p.) ga kamaydi.



2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2023- yilning yanvar-martida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 102,3% (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 14,3 %), sanoatda – 86,7 % (26,7 %), qurilishda – 96,4 % (7,9 %), xizmatlar sohasida – 104,6 % (51,1 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 105,5 % (7,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,0 % (8,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,5 % (35,6 %)dan iborat bo'ldi.




■ 2022- yil
■ 2023- yil

2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi


(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




YAHM



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




2023- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2022- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 110,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 121,5 % va Xizmatlar sohasida – 112,3 % qayd etildi.



Qurilish



Xizmatlar



2022-2023- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi

	Hajmi, mlrd.so‘m	Ulushi, % da
2022- yil	2 269,3	44,6
2023- yil	2 634,7	48,4

2023- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 2 634,7 mlrd.so‘m (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 2 269,3 mlrd.so‘m)ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 48,4 % (2022- yilning yanvar-mart oylarida – 44,6 %)ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

